



## SHUHRAT MATKARIM IJODIDA DIALEKTIZMLAR

Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15751775>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 24-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 27-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*dialektizm, leksema, izoh, o'zlashma qatlam, so'z.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Shuhrat Matkarim ijodidagi dialektizmlarni keng qamrovli jihatdan o'rganish asosiy o'rganish obyekti sifatida belgilab olindi. Shuhrat Matkarim badiiy asarlari tilida qo'llanilgan dialektizmlar tahlil qilindi. Dialektizmlarning adabiy til va badiiy asarlardagi o'rni haqida mulohazalar yuritildi.*

Shuhrat Matkarim xususida so'z ketar ekan, beixtiyor uni bugungi Xorazm ahli uchun qadrlil va qalami o'tkir ijodkor sifatida suyukli ekanligini ta'kidlagimiz keladi. Shuhrat Matkarim nafaqat taniqli yozuvchi, mahoratli jurnalist, mohir tarjimon shu bilan birga har bir hikoyasi tarixni, milliylikni, qadriyatlar va insonlarni ulug'lovchi hamda fidoiy inson hamdir. Xorazm adabiy muhitida Shuhrat Matkarim nomi va ijodining alohida, beqiyos o'rni borligi, yaratgan asarlarining barcha qalblarga birdek yoqishi va asarlari nafaqat vohada, balki butun adabiyot ixlosmandlari orasida birdek qadrlanishi bejiz emas, albatta. Xususan, adibni "Ustoz haqida so'z" nomli yana bir Xorazmning buyuk ijodkori Matnazar Abdulhakim haqidagi essesi orqali ham yaxshi tanymiz. Aynan mana shu esseda Shuhrat Matkarim mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari kun shunday boshlanadi" hikoyalar va esse to'plami, rus yozuvchisi Vasiliy Shukshinning "Olis ufqlar ortida" nomli hikoyalar to'plamidan qilgan tarjimalari ham yozuvchining bugungi adabiy jarayonda o'z so'zi va o'z ovozigaga ega bo'lgan ijodkorligini namoyon etadi.

O'zbek adabiyotida Oshiq Erkin, Matnazar Abdulhakim, Omon Matjon, Tog'ay Murod kabi ko'plab taniqli va qalami o'tkir ijodkorlar o'z asarlarida shevaga xos so'zlarni qo'llash orqali asarning ta'sirchanligini yanada oshirgan. Shu qatorda o'z ustozlarining yo'lidan borayotgan yozuvchilardan biri bu Shuhrat Matkarimdir. Uning asarlarida inson tuyg'ularini shu qadar sof tasvirlaydiki, o'quvchi o'sha asar ichida yashay boshlaydi. Bunga sabab uning asarlarida dialektizmlardan to'g'ri va unumli foydalana bilganligida desak mubolag'a bo'lmaydi. Bilamizki, har bir narsada me'yor bo'lishi muvozanatni ushlab turuvchi bosh omil hisoblanadi. Asarda dialektizmlarni haddan tashqari ko'p qo'llash ma'lum hudud aholisigina tushunarli bo'lib, boshqa hudud o'quvchilariga erish tuyulishi va asarning ommabop bo'lmasligini keltirib chiqaradi. Shuhrat Matkarim esa aynan mana so'zlarni me'yorida qo'llaydigan ijodkordir.

Dialektizmlar – adabiy tildagi dialektlarning o'ziga xos xududiy unsurlari sanaladi va tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va boshqalar) ga taalluqlidir. Badiiy ijodda dialektizmlardan narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg'u berish

maqsadida qo'llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalanadi<sup>1</sup>. Yuqoridagi ushbu fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, haqiqatan ham asar tili makon va zamoni ifodalashda bosh rol vazifasida keladi. Biror hudud va zamon tilini ifodasi bu asarning yutug'i yoki kamchiligi hisoblanadi. Aynan Shuhrat Matkarimda mana shu jihat to'laqonli shakllangan. Uning hikoyalari va qissalarida dialektizm ko'plab o'rinlarda uchraydi va ushbu so'zlar asar mazmuniga, shakliga shu qadar singdirib yuborilganki, yozuvchi mahoratiga qoyil qolsa arziydi.

Shuhrat Matkarim hikoyalari boshqa ijodkorlarnikidan dialoglar orqali ifodalanishi bilan ham tubdan farq qiladi. Ushbu o'rinda biz yozuvchi uslubini Tog'ay Murod uslubiga qiyoslasak bo'ladi. Chunki har ikkala ijodkorda ham dialoglarda ko'plab sheva elementlari qo'llaniladi va aynan mana shu jihatdan ham ularning asarlari tili o'quvchiga erish tuyulmaydi.

Ushbu o'rinda biz "Ota" hikoyasida qo'llanilgan dialektizmlarni ko'rib chiqsak. Hikoyadagi so'zlar inson qalbini jumbushga keltirishi, hikoyaning mazmun jihatidan ham juda ta'sirli bo'lishiga sabab bo'ladi. Hikoyaning kirish qismidagi "cholvor" so'ziga e'tibor qaratsak, ushbu so'z erkaklar kiyimi ifodalab, u yoz oyida kiyiladigan yupqa matodan qilingan shim hisoblanadi. Xaltaning turiga nisbatan "shpagat xalta", oyoq kiyimga nisbatan esa "kirzovoy botinka" jumalari qo'llanilgan. Hikoyada asar qahramonlarining o'zaro dialoglarida dialektizm yaqqol seziladi.

- Usta Shavkat qaytish bo'libdi.
- Shavkat? Ne gap bo'libdi?
- Bilmasam. Oqsham kechqurun soat yettida chiqarishibdi.
- Janozaga aytilmadi-ku? O'sha-o'shandan ham eshitmadik...
- Oqsham do'kongga kelgan uli ham shunday dedi.
- Uli?! Nechuk xabarsiz qolibmiz?
- Boshqa yerda, kasalmand enasining yonida bo'lib yurgan akan.<sup>2</sup>

Yuqorida keltirilgan dialoglarning har birida sheva so'zlari qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. "Qaytish bo'libdi" jumlasida Xorazm hududida har ikkala qipchoq hamda o'g'uz lahjalarida birdek "olamdan o'tibdi, qazo qilibdi" ma'nolarini ifodalaydi. Bilamizki, Xorazm shevasining yaqqol ko'zga tashlanadigan jihati, faqatgina Xorazm dialektiga xos bir sifatini ifodalaydigan "nima" so'zining "ne" tarzida qo'llanishidir. Yuqoridagi "Ne gap bo'libdi?" jumlasida "nima gap bo'libdi" yanayam to'g'rirog'i "nima qilibdi" singari ma'nolarni ifodalaydi. Aynan mana shunday so'rash birliklari dialektizmning mahorat bilan qo'llanilganligini ko'rsatib beradi. "Oqsham" so'zi ham adabiy tildagi singari kechki payt ma'nosida emas, balki "kecha" ma'nosida qo'llanilgan. Xorazm shevasida "kecha" o'rnida "oqshom" so'zi qo'llanilishi tabiiy holdir. E'tiborimizni tortadigan jihat "o'ba-qo'shni" juft so'zi, ya'ni Xorazm dialektizmida "o'ba-qo'shni" emas "qo'ng'shi-o'ba" shaklida ham ishlatilish holatlari ko'proq uchraydi. Ushbu so'z qo'ni-qo'shni ma'nosini bildiradi. Nafaqat o'g'uz lahjasida balki qipchoq lahjasida ham o'g'ilga nisbatan "ul" onaga nisbatan esa "ena" birliklari qo'llaniladi. Hududiy jihatdan o'g'uz lahjasida ham "ena" so'zi Xorazmning janubi-g'arbiy qismida ishlatiladi. "Ul" so'zidan esa shimoliy-sharqiy va g'arbiy hududning ma'lum aholisi foydalanadi. Hikoyada yana "piyon bo'lib yotgan chiqar", "kayfi taroq", "ishli-ishiga ketaveribdi", "ichi uvushdi", "xarajat qilar"

<sup>1</sup> O'zME, Birinchi jild. Toshkent, 2000.

<sup>2</sup> Шуҳрат М. Кун шундай бошланади.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. - 66-67 б.

kabi ibora va so'z birikmalari hamda otaga nisbatan "aka" so'zi, nabiraga nisbatan esa "oqtiq" so'zlari qo'llanilgan.

Asarning xalqchilligini ta'minlashda xalq tilining turfa vositalari, xususan, sheva so'zlari ham alohida o'rin tutadi. Shuhrat Matkarimning yana bir qalbgga lig'lik bag'ishlovchi asarlaridan biri bo'lmish "So'nggi olma" hikoyasida ham dialektizmdan unumli foydalangan. Kuzning oxirgi kunlarini ya'ni kuz tugay deb qolganligini muallif shevaga xos bo'lgan "kuz oyoqlab qolibdi" jumlasini bilan ifodalaydi. Bu tarzda ta'rif hududning yoshi katta insonlari tomonidan ishlatilishi va hikoya qahramonlari ham kampir va chol ekanligi, ularning nutqini esa ishonarli tarzda ifodalab berishi yozuvchi mahoratining yaqqol namunasidir. "Dim sinchida bu kampir!" jumlasidagi "sinchi" so'zini muallif "sinovchan" ma'nosida qo'llaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha keladi: sinchi – (folk.) otarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam. Otning tilini Yo'ldosh novchaday biladigan sinchi yo'qligiga iqrar bo'lsa-da, biror marta nomini o'zgaga olmagan edi. "Alpomish"<sup>3</sup>. Yuqoridagi izohlardan kelib chiqib qadim turk tili elementlari Xorazm shevasida saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. "Shu kunlarda el-kundan tortinmasa, ertagi kim bo'ladi bular?" gapi "hozirdan eldan, odamlardan uyalishmasa, vaqt o'tgach kim bo'ladi bular?" ma'nosini ifodalaydi. Yana muallif sheva elementlarini juda ixcham tarzda cholning nutqida qo'llaydi. "Hov, to'xta, xo'x-x... Anavi olmami? Hova, olma! Qiziq" – aynan mana shu o'rinda Xorazm dialektizmi yaqqol ko'rinadi. Hikoyada bittasi so'zi o'rnida "birisi", qayerdan bilay o'rnida "nevlay" so'zlari qo'llanilgan. Shaxs oti hisoblangan "buva" so'zi chol so'zi bilan ma'nodosh hisoblansa, narsa oti bo'lgan "yaloq" so'zi itga ovqat beradigan idish ma'nosini ifodalaydi. "Qisinaverma" – azoblanaverma, "jilpanglandi" – suykaldi kabi fe'llar, "qatoridan qolib ketgan... narsa yoqimsiz ko'rinadi" singari ibora qo'llanilgan. Ushbu hikoyada dialektizmlar deyarli har ikkita gapning birida qo'llanilgan bo'lsada, hikoyaning o'qishligiga va mazmun, shakl jihatlariga putur yetkazmagan.

Yozuvchi o'z his tuyg'ularini ifodalashda, qahramonlari yashagan muhit hamda ularning nutqini o'ziga xosligini ko'rsatib berishda shevaga xos so'zlardan, ya'ni dialektizmlardan foydalanishini Shuhrat Matkarimning Yo'ldosh Eshmurodga bag'ishlangan "Gapirishga qo'rqadigan odam" hikoyasi misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu hikoyada avvalo, ibora va o'xshatishlarga bir qur nazar tashlasak, "ishton biti" mijg'ov ma'nosini, "bir gap topadi" biror kor-xol bo'ladi ma'nosini, "o'rliqi tutdi" qaysarligi tutdi ma'nosini, "shuning uchun hech yerda ishlatmay ketib tepib qo'yibdi" ishdan haydab qo'yibdi ma'nosini angalatadi. "Hech qachon el bo'lmagan bu bizga" iborasi Xorazm shevasida yaqin bo'lmagan, o'zinikiday ko'rmagan singari variantlarda qo'llaniladi va bizga begonaday degan ma'noni ifodalaydi. Hikoyada qo'llanilgan ushbu iboralar ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Atoqli otlarning sheva so'zlari orqali ifodalanishi o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. "Oqtiq" so'zi shevaga xos leksema bo'lib, Xorazm shevasida nabira ma'nosida qadmdan ishlatiladi. Qipchoq lahjasida "momo" so'zi buvi leksemasi o'rnida qo'llaniladi. "Jo'ra-yoronlar"- jo'ra, yor-do'stlar, "uli" – o'g'li, "aka" – ota degan ma'nolarni ifodalaydi. Xorazm shevasida "aka" so'zining ota ma'nosida qo'llanilishi sulola-urug' hamda lahja bilan bog'liq. Asosan bunday qo'llanish o'g'uz lahjasida ko'proq,

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, – 517 б.

qipchoq lahjasida esa qisman uchraydi. Hikoyada asosan muallif so'roq olmoshlarini dialektizmlarda ifodalaydi. Bu ifoda kuchini oshirib beradi.

– Ne balo bu bolang gungmi? Ushbu parchadagi “ne balo” dialektizmi “na balo” tarzida ham uchraydi, na muncha so'zi o'rnida tinglovchining diqqatini o'ziga jalb qilish maqsadida qo'llangan.

– Novvi ji? Ushbu parchada “novvi” dialektizmi ishlatilgan adabiy tildagi nima? so'roq olmoshining Xorazm shevasining o'g'uz lahjasidagi faol variant hisoblanadi.

– Men qaydan bilaman kimlar bilan yurganini. “Qaydan bilaman” so'zi qayerdan bilaman leksemasini anglatadi. Yana “bilmaysizmi ne yerda yurganini?” so'roq gapidagi “ne yerda” so'zi qayerda ma'nosini ifodalaydi. Yana hikoyada kishilik olmoshi hisoblangan bizning leksemani ifodalovchi “bizzi” so'zi, buni ko'rsatish olmoshini esa “muni” so'zlari ifodalab kelgan. Bundan tashqari hikoyadagi “hovva-hovva” leksemasi ha ma'nosida, “tuvri-tuvri” so'zi to'g'ri ma'nosini beruvchi Xorazm dialektal unsurlaridan hisoblanadi. “Qistanib” leksemasi shoshilib so'zi o'rnida, “qaytalaverma” qaytaraverma so'zlarida o'rnida qo'llanilgan. Yuqoridagi dilektizmlar hikoyaga yorqin bo'yoqdorlik baxsh etgan.

Shuhrat Matkarimning yirik asarlaridan biri hisoblangan “Yilon” qissasida ham talaygina dialektizmlar qo'llanilgan bo'lib, quyidagilarni ko'rib chiqsak.

“– Na, u narsa shu xalatngizdami? – yana sabrsizlandi Bahodir. – Ulli narsaga o'xshamiydi lekin og'zini mahkam bog'lab olibsiz”. Yuqoridagi parchada “na” dialektizmi ana u olmoshi o'rnida tinglovchining diqqatini o'ziga jalb qilish maqsadida qo'llangan. “Ulli” so'zi katta ma'nosida va “o'xshamiydi” fe'li esa o'xshamaydi leksemalari o'rnida xalq hayotini haqqoniy aks ettirish maqsadida qo'llanilgan. “Dialekt so'zlar muallif tomonidan eng avvalo, personaj nutqini tavsiflash uchun kiritiladi. Ular ma'ruzachining ijtimoiy mavqeini va uning ma'lum bir hududdan kelib chiqishini ko'rsatadi”<sup>4</sup>. Yuqoridagi parchada buni yaqqol ko'rishimiz mumkin:

– Chicham xaltaning ichida nima borligini sheriklarimga aytdi, deganga o'xshiydi. Parchadagi “chicham” so'zi shevaga xos leksema bo'lib, kelinoyi so'ziga nisbatan ishlatiladi. Ushbu so'z, asosan, qipchoq lahjasiga to'g'ri keladi.

“Badiiy adabiyot tilini boshqa lug'aviy qatlamlar singari dialektizmlarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Dialektizmlar personaj nutqining individualligini ta'minlash jarayonida uslubiy bo'yoqdorligi jihatdan boshqa nutq vositalaridan sezilarli darajada ajralib turadi”<sup>5</sup>. Haqiqatan ham dialektizmlar asarga o'zgacha ruh va ko'rk beradi. Nafaqat asar strukturasi, balki til jihatidan ham mazmun jihatidan ham asarning ishonchli chiqishini ta'minlab beradi. Biror voqea, hodisa, narsalarga mahalliy urg'u berish, qahramon yashash hududini belgilash va shunga monand dialektizm so'zlarini qo'llash, qahramonni o'zi yashayotgan muhitdan, makondan ayirmagan holda, real hayotdagi singari ishonarli va jonli ifodalashi badiiy adabiyotda katta ahamiyatga molik. Shuhrat Matkarim bu borada professional ijodkor desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki uning har bir hikoyasida, qissa va esselarida dialektizm qo'llanilmasdan qolmaydi. Ijodkor dialektizmlardan foydalanar ekan uni asar ruhiyatiga shu

<sup>4</sup> Reshetov V., Shobdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – T., 1962.

<sup>5</sup> Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. – Toshkent: Akademnashr, 1983, – 18 b.

qadar singdirib yuboradiki, asarda ifodalangan dialektizmning olib badiiy tildagi muqobilini uning o'rniga qo'yib bo'lmaydi. Mustaqil tadqiqotchi Iskandarov Siroj o'z maqolasida badiiy adabiyotda adiblar dialektizmlardan ikkita o'rinda foydalanishlarini aytib o'tadi. Bularni u quyidagicha tasniflaydi:

1) Dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) Adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi.

Ushbu qarash ilmiy jihatdan to'laqonli to'g'ri hisoblanadi. Ammo, yana bir jihat ya'ni bizning fikrimizcha, uchinchi bir tomondan o'zlashgan qatlamdagi so'zlar o'rniga o'zimizning qadimgi turkiy til elementlarini qo'llashni maqsad qilib oladi. Bunga misol tariqasida Shuhrat Matkarimning bir necha hikoyalaridan misol keltirsak. "Skripka ko'targan qiz" hikoyasida "Adandagi kursiga ilig'liq dazmolgan oq ko'ylak, kulrang shim va rangi o'ngib ketgan bo'yinbog'ga qaradi" jumlasidagi "adan" so'zi adabiy tilimizda ostona so'ziga to'g'ri keladi va ostona so'zi etimologik jihatdan tojik tilidan o'zlashgani ma'lum. "Yong'in" nomli hikoyasida "U orqayin, haddan ortiq orqayin edi" gapidagi "orqayin" so'zi xotirjam sifatiga to'g'ri keladi va ushbu so'z ham sof turkiycha so'z emas.

Atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o'zining "Adabiyot tildan boshlanadi" nomli maqolasida shunday yozgan edi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi"<sup>6</sup>. Shevalar birlashib bitta umumiy adabiy tilni vujudga keltiradi. Adabiyotda shevaga oid so'zlardan unumli va shu bilan birgalikda o'rinli qo'llash badiiy adabiyotni koloritini va ifodaviyligini oshiradi. Biror hududga xos tarzda azar yozish, albatta, o'sha hududning urf-odatlarini ifodalash katta mehnat talab qiladi. Chunki dialektalizmlarni me'yorda qo'llash, ma'nolarining tushunarligini ta'minlash kerak bo'ladi. Shuhrat Matkarim hikoya va qissalarida dialektizmlarni izohsiz qo'llasa, ba'zida sahifa tagida uning ma'nosini ham keltirib boradi. Bu usul o'quvchi kitobxon uchun ayni muddao hisoblanadi. Ya'ni keng qamrovli kitobxon ommasiga taqdim qilingan asar tili soda va tushunarli bo'lmog'i lozim. Chun "Kun shunday boshlanadi" hikoyalar to'plamidagi yuqorida ta'kidlaganimidek sahifa tagida ma'nolari keltirilgan dialektizmlarga to'xtalsak. Ushbu to'plamda jami o'ttiz to'qqizta hikoya va bitta esse jamlangan bo'lib, shulardan o'n beshtasi kichik hikoyalardir. Har bir hikoyada deyarli yuzda qirq foiz sheva elementlari ya'ni dialektizmlar qo'llanilgan bo'lib, yetmish sakkizta shevaga xos bo'lgan so'zlarga sahifa tagida izoh berilgan. Ushbu dialektizmlar orasida ot so'z turkumiga oid "kaskaldak" – yo'g'on tayoq, "yumurta" – tuxum, "dars" – go'ng, "chiqon" – dugona, "kat" – so'ri, "chel" – marza, egat, "adan" – ostona, "secha" – chumchuq, "solma" – ariq, "cho'rak" – Xorazmning kichkina noni, "chilanchi" – kichkina barmoq, "oqtiq" – nevara, "ul" – o'g'il, "aka" – ota, "qo'ng'shi o'va" – qo'ni-qo'shni, "kartiklos" – kaltakesak, "o'jak" – buzoq, "qoptol" – yonbosh, "o'ymoq" – angishvona, "qopu" – eshik, "galinbiyi" – kelinoyi, "chovliq" – nevara, "yovliq" – evara, "jundig" – lab, "chuqoloq" – chuqurcha, "yog'day" – ahvol, ko'rinish, "otiz" – dala, "gurvak" – qovunning faqat Xorazm va

<sup>6</sup> Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi. Toshkent, 1986.

Qoraqolpog'iston hududlarida yetishtiriladigan turi, "dolon" – kiraverishdagi katta xona, "ijjon" – qiyma, "g'o'z" – yong'oq, "nochor" – ayol, "qopchiq" – hamyon, "popoq" – Xorazm milliy bosh kiyimi, telpak, "baqachanoq" – chig'anoq, "digirjak" – g'ildirak, "yekan" – zakashda o'sadigan o'simlik turi, "uxa" – baliq sho'rva nazarda tutilgan, "kullikchilik" – xizmatkorlik, "yo'ng'ich otiz" – bedazor, "chig'" – shabnam, "teyi" – tagi, "doyi" – tog'a kabi dialektizmlar qo'llanilgan. Sifat turkumiga oid esa, "cho'mmiq" – qo'li yo'q, ko'chma ma'noda noshud, qo'lidan ish kelmaydi, "o'kchabaland" – baland poshna, "toyloq" – yalong'och, "toza" – yangi, "orqayin" – bemalol, "chorvoyi" – janjalkash, "danjik" – bebosh, "jilli" – jinni, "tiskinchak" – tortinchoq, noziktab, "o'rrapsiz" – qo'lidan ish kelmaydi, "qarri" – kekxa, "sinchi" – sinovchan singari so'zlar ifodalangan. Yana fe'l va so'z birikmalariga oid turkumiga oid "lo'rsillab" – lo'qillab, "elashma" – hazillashma, "choshmoq" – aqldan ozmoq, "esirmoq" – o'zidan ketmoq, haddidan oshmoq, "olishirish" – cho'g'lantirish, qizitish, "onglayotgan" – poylayotgan, "o'ngmading" – o'nnglanmading, "haz etmoq" – mazza qilmoq, "kalo bo'lmoq" – o'z-o'zini o'nglamoq, "mijilldab" – mijg'ovlanib, "surnikib" – qoqilib, "qistanib" – shoshilib, "tirmalab" – timdalab kabi sheva so'zlari o'z o'rnida ma'no ta'sirchanligini oshirib bergan. Bundan tashqari, Shuhrat Matkarim hikoyalarida ravish, olmosh, son va so'z turkumlarida ham adabiy tildagi emas balki, dialektizmlardan foydalanadi.

Shevalar asarga o'zgacha samimiy ruh baxsh etishi bilan birgalikda asar voqealari qayerda aks etib turganini ham ko'rsatib beradi. Shevalar orqali ifodalangan tushunchalarga kitobxonning diqqati beixtiyor oshadi. Ko'rinadiki, badiiy asar yaratishda dialektizmlardan foydalanish esa asarning xalqchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Reshetov V., Shobdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – T., 1962.
2. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. – Toshkent: Akademnashr, 1983, – 18 b.
3. O'zME, Birinchi jild. Toshkent, 2000.
4. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi. Toshkent, 1986.
5. Шухрат М. Кун шундай бошланади.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. - 66-67 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, – 517 б.